

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.B.Nuriddinova	
Linguistic feature of english riddles	129
S.S.Qozaqova	
"Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili.....	133
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	139
N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva	
Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish	143
G.Sh.Ergasheva	
Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida.....	147
M.A.Abdugodirova	
A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek ..	153
M.A.Sayidova	
Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	159
A.X.Шукурова	
Таҳлили қиёси вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллий дар ғўйишҳои тоҷикони Сариосиё ва Самарқанд	163
M.N.Xamdamova	
Yangi O'zbekiston qonunchiligida til masalasi va yurislingvistika.....	172
K.T.Sindorov	
She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari	176
X.C.Шукурова	
Таҳлили баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсӣ	180
Г.Р.Ташматова	
Стратегии интеграции обучения языку и предметному содержанию в развитии профессиональной коммуникативной компетенции	187
N.K.Abbasova, M.I.Abdualiyeva	
Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis.....	193
N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya	
Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies	197
I.I.Po'latova	
O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi	205
O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	209
K.A.Abdurashidova	
Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и английской традициях.....	213
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs.....	219
D.Y.Kambarova	
Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era	222
G.T.Khaitova	
O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili	229
M.O.Batirkhanova	
Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs.....	233
J.A.Egamnazarov	
"Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili.....	238
K.T.Israilova	
ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi	242
M.M.Botirova, Z.G.Qodirova	
Ta'limiy korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.....	246
F.K.Aminov	
Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital identity and engagement strategies	250
Z.M.Sobirova	
Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi.....	254



UO'K: 81'322:004.8

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

ВАЖНОСТЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

THE IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES

Sayidova Madina Abdurasul qizi 

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganish jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. An'anaviy ta'lim usullari bilan solishtirilganda, sun'iy intellekt vositalari o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlash, interaktiv ta'lim muhitini yaratish va til ko'nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi. Maqolada, shuningdek, sun'iy intellekt vositalarining til o'rganishdagi innovatsion yondashuvlari, lingvodidaktik jihatlari va o'quv jarayonidagi afzalliklari muhokama qilinadi.

Аннотация

В данной статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта в процессе преподавания и изучения иностранных языков. По сравнению с традиционными методами обучения, инструменты искусственного интеллекта обеспечивают индивидуальный подход к студентам, создают интерактивную образовательную среду и способствуют развитию языковых навыков. В статье также рассматриваются инновационные подходы искусственного интеллекта в изучении языков, их лингводидактические аспекты и преимущества в учебном процессе.

Abstract

This article analyzes the role of artificial intelligence technologies in the process of teaching and learning foreign languages. Compared to traditional teaching methods, artificial intelligence tools provide students with an individualized approach, create an interactive educational environment, and contribute to the development of language skills. The article also examines the innovative approaches of artificial intelligence in language learning, its linguodidactic aspects, and its advantages in the educational process.

Kalit so'zlar: sun'iy texnologiyalar, muammo, talaba, og'zaki nutq, chet tillar, kamchiliklar, ilova, o'quvchi, baholash tizimi, platforma, lingvodidaktik, sun'iy intellekt, metod

Ключевые слова: искусственные технологии, проблема, студент, устная речь, иностранные языки, недостатки, применение, студент, система оценивания, платформа, лингводидактика, искусственный интеллект, метод

Key words: artificial technologies, problem, student, oral speech, foreign languages, deficiencies, application, student, evaluation system, platform, linguodidactics, artificial intelligence, method.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (SI) ta'lim jarayonida tobora keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. An'anaviy usullarga nisbatan, SI vositalari o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlash, interaktiv ta'lim muhitini yaratish va til o'rganish jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradi. Til o'rganishda asosiy muammolardan biri – o'quvchilarning motivatsiyasi va amaliy nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan o'quv platformalari va mobil ilovalar ushbu muammolarni hal qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "Duolingo", "Tandem" kabi ilovalar foydalanuvchilarga til ko'nikmalarini mustahkamlash va real hayotiy muloqot muhiti yaratish imkonini beradi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati, ularning o'quv jarayonidagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, SI vositalarining til o'rganish motivatsiyasiga ta'siri, amaliy qo'llanilishi va mavjud muammolarni bartaraf etish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Faollik aqliy, hissiy va nutqiy kabi uch ko'rinishdan iborat. Til o'rganish ijobiy hissiyotlar - hissiy quvonch va aqliy rivojlanish keltirgandagina faollik o'sib boradi. Texnologiya va SI asrida til o'rganuvchilarining faolligini yangi yo'nalishlarda oshirish mumkin. Til materiallarini to'g'ri tuzish va ularni o'quvchilarning yoshi, qiziqishlariga mos holda qo'llash faollik darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Avvalgi tadqiqotlar faollikni oshirish uchun bir qancha usullarni tavsiya etadi: xorijiy tilda so'zlashganda xato qilishdan cho'chimaslik, qiyinchilikni engish, o'quvchi nutqining uning shaxsiy hayotiga daxldorligi, darslarda o'quvchi-o'quvchi, o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-sinf, o'quvchi-sinf kabi turli yondashuvlarni qo'llash, musobaqalar va o'yinlar o'tkazish kabilar faollikni kuchaytirish omillaridandir.[1] Bizning fikrimizcha, chet tillarni o'rganish jarayonida albatta qiyinchiliklarga duch kelamiz va buni engish usullari borasida o'ylaymiz. Yuqorida berilgan usullarga qo'shilgan holda, istalgan tilda izlanishda xato qilishdan qo'rqmagan holda suhbatlashishimiz kerak, ayniqsa, og'zaki ko'nikmalarda chunki ko'plab o'quvchilar aynan mana shu xatodan qochib, tilda to'xtalishlarga duch kelishadi. Hozirgi kunda esa bu muammoni engish uchun turli texnologiyalar ishlab chiqildi. Endilikda izlanayotgan o'quvchi va talablarga og'zaki nutqni oshirish uchun turli xil platformalar yaratildi. Bunga misol qilib "Duolingo" ilovasini olsak bo'ladi. Bu ilovada biz 40dan ortiq tillarni sun'iy intellekt yordamida o'rgana olamiz va biz xatolarimiz ustida ishlash uchun ham tayyor so'zlovchi mavjud. Bu esa bizning og'zaki kamchiliklarimizni to'g'rilashga yordamchi bo'ladi.

Tushunarli talaffuzni rivojlantirish ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan talabalar hamda o'qituvchilar uchun doimiy muammo hisoblanadi. Hozirda bu borada o'qituvchilarga ham, talabalarga ham yordam beradigan bepul texnologiyalar mavjud. Nutqni transkripsiya qilish, talaffuzni tekshirish va ovozli buyruqlarga javob berish mumkin. Quyidagi amaliy tavsiyalarni sinfda sinab ko'rishdan oldin o'quvchilaringizdan smartfon sozlamalaridagi tillar ro'yxatiga ingliz tilini qo'shishlarini so'rang. Tizim talabaning nutqini tushunishi va transkripsiyalashi uchun til sozlamalari ingliz tilida yoqilgan bo'lishi kerak.[2] Albatta, sun'iy texnologiyalardagi qulay imkoniyatlar nafaqat og'zaki nutq balki, talaffuzdagi kamchiliklar ustida ishlashga ham yordam beradi. Masalan, ingliz tilini o'rganayotgan payt harflarini talaffuz qilishda ancha farq bor va buni to'g'irlashda "Tandem" ilovasi o'z hissasini qo'shgan. Unda biz chet ellik insonlar bilan birgalikda onlayn muloqot qilishga ega bo'lamiz va yana bir qulayligi agarda xatolik kuzatilsa, shu zahotiyqoq ilovani o'zi buni tuzatadi.

Raqamli texnologiyalar ta'limning shu paytgacha shakllangan, mavjud bo'lgan modelini butunlay o'zgartirdi. Birinchidan, talaba darsda hech qachon uxlamaydi, chunki darslar interaktiv va qiziqarli tarzda shakllantiriladi. Ikkinchidan, sun'iy intellektidan foydalanishda talaba o'quv jarayonini o'ziga moslashtirishi va individuallashtirishi mumkin, bunga an'anaviy darslarda to'liq erishib bo'lmaydi. Uchinchidan, AI raqamlashtirilgan baholash tizimi o'qituvchiga o'qish kursini tezda o'ziga moslab sozlash, eng samarali ta'lim formatini tanlash imkonini beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy darslardan farqli o'laroq, sun'iy intellekt yordamida o'quv jarayoni yanada qiziqarliroq va samaraliroq kechadi, qog'ozdagi zerikarli yozilgan so'zlar va iboralar o'rniga, so'zlar interaktiv formatda o'rganiladi.[3] Ma'lumki, chet tillarni o'rganishdagi odatdagidek qilingan uslublar o'quvchini zeriktiradi, sun'iy texnologiyalar esa buni aksincha qiladi. Izlanish jarayonida ilovalar talabaning nafaqat qiziqishini, balki e'tiborini ham tortadi. Masalan, an'anaviy darslarda ko'p hollarda gapirib berish, doskaga yozish, daftar tekshirish bilan o'tadi, ammo platformalarda turli aqliy rivojlantirish orqali o'yinlar, blits savollar va raqamlashtirilgan baholash tizimi tashkil qilingan. Hattoki talaba uy vazifalarini mobil telefon bilan bajarib, baholarini onlayn ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasida xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyatini o'rganish uchun turli ilmiy metodlar va tadqiqot yondashuvlari qo'llanildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida xorijiy til o'rgatishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'zni va ta'lim jarayonidagi ahamiyatini aniqlash maqsadida mavjud adabiyotlar tahlil qilindi. Bu tahlilda xorijiy til o'rganishdagi motivatsiya, faollik va texnologiyalarning ta'siri, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining lingvodidaktik pedagogik modeldagi o'zni haqidagi ilmiy izlanishlar o'rganildi. Maqolada shuningdek, xorijiy til o'rganuvchilarining sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida o'qish va og'zaki nutqni rivojlantirishdagi faolligini oshirishga qaratilgan tajriba-sinov tadqiqotlari o'tkazildi. Ushbu tadqiqotda "Duolingo" va "Tandem" kabi ilovalar va platformalar orqali til o'rganuvchilarining

TILSHUNOSLIK

tajribasi o'rganildi. Sinovlar davomida talabalar va o'qituvchilarning fikr-mulohazalari yig'ilib, ularning til o'rganishdagi qiyinchiliklari va sun'iy intellekt yordamida bu muammolarni qanday hal qilayotgani tahlil qilindi. Maqolada sun'iy intellekt yordamida chet tilini o'rganishda faollik va samaradorlikni o'lchash uchun kvantitativ va sifatli tahlil usullari qo'llanildi. O'quvchilar bilan o'tkazilgan so'rovlar, intervyular va test natijalari asosida sun'iy intellekt texnologiyalarining til o'rganishga ta'siri tahlil qilindi. Bu jarayonlar o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonidagi motivatsiya va faolligini oshirishda qanday yordam berishi haqida aniq xulosalar olish imkonini berdi.

O'rganishimiz davomida kommunikativ, interaktiv, tajriba va xatolar orqali o'rganish usullaridan foydalandik. Kommunikativ metod, asosan, suhbatga, ya'ni og'zaki so'zlashuvga qaratilgan uslubdir. Unda biz tilni real hayotda ishlata olamiz va "Duolingo" foydalanuvchilariga suhbatni amalda qo'llashga imkon beradi va shu bilan xatolarni tuzatishga yordam beradi. Interaktiv metod esa ilovada foydalanuvchilarning passiv tarzda eshitishdan ko'ra, aktiv ishtirok etishga chaqiradi. Tajriba va xatolar orqali ishlash esa izlanuvchilarning xato qilishdan qo'rqmaslikka chaqiradi va bu ularga o'z-o'zini tahlil qilish va yangi bosqichga ko'tarilishiga sababchi bo'ladi.

NATIJALAR

Chet tillarini o'rgatish va sun'iy intellekt texnologiyalari o'rtasidagi aloqadorlik zamonaviy lingvodidaktika doirasida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sun'iy intellekt ta'lim sohasiga o'quv jarayonlarida sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Ya'ni talaba yoshlarning til o'rganish jarayonida o'zlarini noqulay his qilishlari va xatolardan qochmasliklarini ta'minlaydi. Natijada, sun'iy intellekt o'quvchi yoshlarning xorijiy tilni o'rganish jarayonida individual rivojlanishiga moslashadi, pedagogik bilimlarni oshirish va maqsadga yo'naltirilgan lingvodidaktik modellarni ishlab chiqish imkonini yaratadi va tildagi xatolarni to'g'rilash, ularni yaxshilashga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining roli muhim ahamiyatga ega. An'anaviy o'qitish usullariga nisbatan, SI o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlaydi, interaktiv ta'limni samarali tashkil etish imkonini beradi va til o'rganishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda yordam beradi. O'quvchilarning motivatsiyasi va amaliy nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ayniqsa, og'zaki nutqda xatolarni tuzatish borasida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Masalan, "Duolingo" va "Tandem" kabi ilovalar orqali talabalar til ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga, real muloqot muhiti yaratishga muvaffaq bo'lmoqdalar. Bunday platformalar o'quvchilarga o'z xatolarini o'rganish va tilni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi. Sun'iy intellektning ta'limdagi imkoniyatlari nafaqat talabalar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham katta afzalliklarga ega. Sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonini moslashtirish, o'quv materiallarini optimallashtirish va baholash tizimini raqamlashtirish imkoniyatlari mavjud. Bu esa o'qituvchining ishini engillashtiradi va talabalar bilan yanada samarali ishlashga yordam beradi. Biroq, bunday texnologiyalarni joriy qilishda ba'zi qiyinchiliklar mavjud. Fikrimizcha, sun'iy intellekt texnologiyalari xorijiy til o'rganishda faollik va motivatsiyani oshirishda samarali vosita bo'lib, uning ta'limdagi rolini yanada kengaytirish va takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

XULOSA

Sun'iy intellekt texnologiyalari xorijiy tillarni o'rganish jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga xizmat qilmoqda. Bu texnologiyalar ta'limni individuallashtirish, o'quvchilarning xatolarini tezkor aniqlash va ularni tuzatish imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar talaffuzni rivojlantirish, grammatik xatolarni tahlil qilish va shaxsiy o'quv rejalarini yaratishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, o'quvchilar mustaqil ravishda mashg'ulotlarni olib borishlari, o'z bilim darajalarini baholashlari va o'rganish jarayonini moslashtirishlari mumkin. Biroq, sun'iy intellekt inson omilini to'liq almashtira olmaydi, balki uni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida samarali foydalanish lozim. Kelajakda bu texnologiyalarning yanada rivojlanishi natijasida ta'lim jarayoni yanada innovatsion, qulay va moslashuvchan bo'lishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. SUN'IY INTELLEKT ORQALI XORIJIY TIL O'RGANUVCHILARINING FAOLLIGINI OSHIRISH VA TA'LIM JARAYONIGA JALB QILISH Malika Abduvakilovna KASIMOVA O'zbekistonda xorijiy tillar, 2024, 10-jild, № 1 (54), b. 149
2. CHET TILLARINI O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI *Omina Muxiddinova Journal of new century innovations* b 149